



ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA PSIXIK JARAYONLAR RIVOJLANISHIDA TEXNOLOGIYA DARSLARINING AHAMIYATI

Karimova Ullibibi Baxrom qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Surdopedagogika va inklyuziv ta'lim kafedrasi o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10682339>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik o'ziga xosliklarini texnologiya dars jarayonida namoyon bo'lishi o'rganildi va samarali metod va tavsiyalar berildi.


Kalit so'zlar: kichik maktab yoshi, texnologiya, nuqson, karlik, diqqat, xotira, iroda, hissiyot, xarakter.

ABSTRACT

The fact that the quality of teacher training using modern technologies in existing higher educational institutions does not meet today's requirements requires a radical rethinking and modernization of teaching technologies.

Keywords: primary school age, technology, defect, deafness, attention, memory, determination, emotion,


Ko'p yillik ilmiy izlanishlar natijasi kichik maktab yoshi davrida (7-11 yosh) bolalar ruhiyati boshqa davrlardan farq qilishini ko'rsatdi. Buning sababi, birinchidan, aynan shu davrga kelib, bolada ilk faoliyat almashinuvi (o'yin faoliyatidan o'qish faoliyatiga) ro'y beradi va bu "inqilob" ma'lum muddat "krizis"ga olib keladi. Ikkinchidan bu davrga kelib bola bosh miya yarimsharlarining aksariyat qismi yetuk shakllanib bo'lgan bo'ladi. Lekin aynan odam miyasini boshqa hayvonlar miyasida farq qiladigan, faqat odamga xos, murakkab psixik jarayonlarni boshqaadigan va tartibga soladigan peshona bo'limi to'liq shakllanmagan bo'ladi. Bu bo'lim 12 yoshgacha to'liq shakllanadi. Demak, bolani kelajakdagi xulq-atvori, shaxsiyati aynan shu davrda shakllanadi. Texnologiya, jismoniy tarbiya kabi amaliy harakat talab etadigan fanlar bolalarda aynan shu bosh miya yarimsharlari peshona sohasini rivojlantiradi. Ularda motorika, mayda motorika, mo'ljal olish, diqqatni jamlash, xotira funksiyalarini, sabrlilik, matonat, jamoaviylik hislatlarini shakllantiradi. Nerv sistemasini rag'batlantiradi va qo'zg'alish tormozlanish jarayonlarini me'yorlashtiradi. Ammo me'yordan ortiq yuklama, noto'g'ri munosabat aksincha ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun pedagoglar, ayniqsa rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalar bilan munosabatda ularning rivojlanish darajasi, nuqson xarakteri, individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlashlari zarur.





Tajriba tadqiqotlarimizda hisobga olinishi zarur bo'lgan bir nechta holatlarni kuzatib tahlil qildik.

Kichik maktab yoshidagi bolalar psixologiyasi, unga ta'sir etuvchi omillar ko'plab o'zbek va xorij olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Atoqli rus defektologi S.A.Zikov rahbarligida kar bolalarni har taraflama rivojlantirishda predmetli amaliy faoliyatni asosiy vosita sifatida foydalanilgan didaktik tizim ishlab chiqilgan. Va bu didaktik tizim umumiy va maxsus pedagogika, didaktika, psixologiya fanlari yutuqlarini o'zida mujassam qilgan. A.I.Dyachkov, A.P.Gazova, L.A.Novaselova tadqiqotlari mehnat ta'limi va o'quvchilarning umumiy bilimlarni o'zlashtirishida bog'liqlik borligini isbotlagan. 70-90-yillarda T.S.Zikova, E.N.Marsinovskaya, T.V.Nesterovich mehnat ta'limini dastlabki mehnat ko'nikmalarini shakllantiruvchi vosita sifatida ko'rishgan va namunaviy dars uslublarini ko'rsatganlar. I.F.Ivachenko o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ularda mavjud moyillik qobiliyatlarni yuzaga chiqarishini aytib o'tgan. T.G.Bogdanova o'zining "Surdopsixologiya" asarida mehnat ta'limi bolaning umumiy ko'rish, eshitish, harakatchanlik holati, ruhiy holatiga, o'qish ko'rsatkichlariga, bolaning maktabga bo'lgan qiziqishi, tengdoshlari bilan muloqotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ixtiyoriy diqqatni shakllantirish, nutqni tinglash qobiliyati, eshitish va ko'rish idrokini, xotira va tafakkurini rivojlantirishini keltirib o'tgan. B.G.Ananyev fikricha, boshlang'ich maktab yoshi yangi faoliyat turini shakllantirish bilan tavsiflanadi, ta'lim boladan nafaqat aqliy zo'riqish, faollik, balki jismoniy chidamlilik ham talab qiladi. O'yin faoliyatidan o'qish faoliyatiga o'tish bolaning motivatsiyasi, hatti-harakatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'zbek olimlari ham bu borada bir qancha izlanishlar olib borgan. Jumladan Nurkeldiyeva D.A, Chicherina Ya.Ye. muallifligidagi "Ilk, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni psixologik-pedagogik, logopedik tekshirish" asarida bolaning tug'ilganidan to 11-12 yoshgacha bo'lgan davri psixologik-pedagogik va logopedik kategoriyalar bo'yicha yosh davrlari kesimida tahlil qilingan. L.R. Mo'minova, Sh.M.Amirsaidova, Z.N. Mamarajabova, M.U.Xamidova, D.B. Yakubjanova, Z.M. Djalolova, N.Z.Abidovalar hammuallifligidagi "Maxsus psixologiya" o'quv qo'llanmasida surdopsixologiya bo'limi aynan eshitishda nuqsoni bor bolalar psixikasiga bag'ishlangan. Unda kar bolalarga predmetli amaliy faoliyatning ahamiyati ham yoritilgan.Sh.Do'stmuxamedova boshchiligidagi mutaxassislar "Yosh davrlari va umumiy psixologiya" asarida bolaning homilalik davridan boshlab har bir davrning psixologik xususiyatlarini yoritib berishgan. P.f.n. dotsent Sanaqulov H.R mehnat ta'limi va tarbiyasining bola hayotidagi ahamiyatini ko'rsatib o'tgan.






Bu boradagi ilmiy izlanishlarga to'xtaladigan bo'lsak, G'apparova.Sh.A, Z.Muxammadjonovanning "Kichik maktab yoshidagi bolalarni aqliy taraqqiyoti rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar", M.Q.Raxmanovanning "O'quvchilarda bilish faoliyatini kengayishida ta'lim jarayonlarining ahamiyati", F.H.Eshonqulovanning "Kichik maktab yoshidagi bolalarni maktabga moslashish muammosi" kabi ilmiy ishlar e'tiborga molikdir. Biz esa kichik maktab yoshidagi bolalarda mehnat ta'limi va faoliyatini psixik jarayonlarga va bola xulq-atvoriga ta'siri xususida to'xtalamiz.

Muhokama va natijalar

Biz bilamizki, kichik maktab yoshi davri bu bolaning maktabga chiqishi bilan boshlanadi va 6-7 yoshlarga to'g'ri keladi. Ayni shu davr, psixologlarning ta'kidlashicha, bolaning kelgusi hayotini poydevori bo'lib xizmat qiluvchi eng murakkab va ahamiyatli davrdir. Zotan, bu davrda bolalar o'yin faoliyatidan o'qish faoliyati va boshlang'ich mehnat faoliyatiga qadam qo'yishadi. Bolalarda bilimga va mehnatga qiziqish, muhabbat paydo bo'ladi. Bola xulqida impulsivlik tobora kamayib, maqsadga muvofiq harakatlanish ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Va yangi ixtiyoriy hatti-harakatlar kattalarga taqlidan yuzaga keladi. Amaliy fanlar, ayniqsa, texnologiya darslari bolalar ruhiyati rivojlanishiga kata ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi texnologiya darslarida faqat og'zaki tushuntirib qolmay, balki materiallar, buyumlar, asbob-uskunalar bilan jonli tanishtiradi va ish bosqichlarini qat'iy ketma-ketlikda ko'rsatib beradi. Natijada eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'ruv, saqlanib qolgan eshituv idroki, harakat xotirasi rivojlanadi. To'g'ri tashkil etilgan texnologiya darslari bolalarda qiyinchiliklarni yengishni, qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida matonat va qat'iyat bilan kirishishni, boshlagan ishni chala tashlamasdan to'liq tugatishni o'rgatishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ijobiy natiga erishish uchun mehnatdan quvonish va lazzatlanish, natijadan qoniqish hissi juda muhim. Bundan tashqari kichik maktab yoshidagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni aqliy rivojlanishini baholash qiyinchilik tug'diradi. Sababi muloqotga kirishishdagi qiyinchiklar, nutq yetishmasligi tufayli o'zini namoyon etish imkoni kamayadi. Texnologiya darslarida esa ular o'zlarini bemalol va erkin namoyon qila oladi. Ularni bajargan ishlariga qarab aqliy va ruhiy rivojlanishiga baho berish mumkin bo'ladi. Mehnat faoliyatida shaxsning qiziqish, qobiliyat, intiluvchanlik kabi shaxsiy psixologik xususiyatlari rivojlanadi. Eshitishdanuqsoni bo'lgan bolalarni aqlini o'stirishda mehnat ta'limi ko'p qirralidir. Aqliy va jismoniy faollik almashib turishi aql bilan maqsadli harakat qilish, kelajakdagi natijani mo'ljallay olishni shakllantiradi. Mehnat eng muhim iroda va shaxsning axloqiy





fazilatlarini boyitadi, o'z mehnati uchun shaxsiy javobgarlik hissini tarbiyalaydi. Agar bolani har qadamda aniqlik va tartiblilikka o'rgatsa, bu xarakterga singadi va kelajakda o'z ishini puxta va toza qiladigan bo'ladi. O'quvchilar orasida o'zaro yordam, do'stlik, mehr-oqibat kabi fazilatlar paydo bo'ladi. Shaxsiy kuzatuvimda eshitishda nuqsoni bor bolalar maktab internati tayyorlov guruhi va birinchi sinf o'quvchilarida rang-barang amaliy ishlarga katta qiziqish borligini guvohi bo'ldim. Bayramlar uchun xona bezatishda qog'oz bezaklar yasash mobaynida ularda ixtiyoriy diqqat, xotira, mayda motorika va nutqni kuzatdik. Natijada bolalarning 60% qismi yangi faoliyatga katta ishtiyoq bilan kirishgani, qolgan qismi biroz vaqtdan so'ng sheriklari ishiga taqlidan harakat qilishganini guvohi bo'ldik. Ixtiyoriy diqqat bir buyum ustida 3-4 daqiqadan ko'p turmasligini, uzoq muddatli faoliyatga irodasi yetmasligini aniqlab, faoliyat turlarini almashtirib turish samara berishini ko'rdik. Masalan bitta buyumni 6-7 marta yasagandan keyin bolalarni qiziqitirmay qo'yadi. Bola topshiriqni bajargisi kelmaydi. Chunki ularda hali iroda va hissiyotni boshqarish ko'nikmasi kam rivojlangan bo'ladi. Asta-sekin tadrijiy tarzda olib borilgan ishlar natijasida keyingi siflarda tepadagi ko'rsatkichlar yaxshi tarafga o'zgarishi mumkin.

Eshitishda nuqsoni bor bolalarda ixtiyoriy diqqat, fazoviy idrok, namuna bo'yicha harakat qilish va mayda motorikani predmetli amaliy faoliyat darslarida tekshirish juda qulay. Buning uchun ularni biror applikatsiya yasash jarayonini va bajargan ishini kuzatib quyidagi mezonlarni baholash zarur:

1. Bola qaysi qo'li bilan ishlaydi: qalam, qaychini qaysi qo'lda ushlaydi(o'ng yoki chap)
2. U namuna bilan qanday ishlaydi: tez-tez qaraydimi yoki avval yaxshilab kuzatib keyin xotirasiga tayanadimi, qilgan ishini namuna ustiga q'yib solishtiradimi va hokazolar;
3. Qirqishda, yopishtirishda aniq kontur bilan ishlaydimi yoki betartib qirqib yopishtiradimi;
4. Ish paytida chalg'idimi;
5. Ish davomida yordam so'radimi;
6. Ish yakunida uni namuna bilan solishtirib, kamchiliklarini tuzatdimi;

Olingan natijalar tahlil qilinadi, quyidagilar xatolar hisoblanib 1 balldan baholanadi:

-Namunadagi biror qism qolib ketsa;

-ish makonda noto'g'ri joylashtirilsa(haddan tashqari kichik yoki katta, bir tomonlama);

-ish jarayonida 3 martadan ko'p yordam so'rasa;





-Ish jarayonida diqqati tez va ko'p chalg'isa;

-yakuniy ish namunaga shakl va mazmun jihatda o'xshamasa;

0 ball- zaif eshituvchilarga qaraganda kar bolalar orasida ko'p uchraydi. Rassomchilik yoki hunarmandchilikka istedadli bolalar bo'lishadi.

1 ball- eng keng tarqalgan daraja bo'lib, diqqati va xotirasi, orientirlash qobiliyati rivojlangan bo'ladi.

2 ball- qoniqarli daraja bo'lib, ixtiyoriy diqqat va motorika yetarlicha rivojlanmagan bo'ladi.

3 ball- bu daraja odatda giperaktiv bolalarda kuzatilib, ularda iroda yetishmovchiligi bo'lishi mumkin. Alohida shug'ullanish maqsadga muvofiq.

4-5 ball – bu daraja bolaning aqliy va ruhiy rivojlanish darajasini shubha ostiga oladi. Bolada eshitish nuqsoniga bog'liq ikkilamchi RRS (ruhiy rivojlanish sustlashishi) bo'lishi mumkin.

Xulosa va tavsiyalar

1. Kichik maktab yoshi davrida barcha bolalarda suyak, mushaklar tizimi jadal o'sadi va shakllanadi. Tana skleti suyaklanishni boshlaydi. Shuning uchun texnologiya darslarida topshiriqlarni shunday berish kerakki, bola ko'p muddat partaga engashib qolmasligi lozim. Dars davomida jismoniy daqiqa va ko'zlar uchun dam berish mashqi foydali.

2. Fiziologlar ma'lumotiga ko'ra, bosh miya yarimsharlaridagi mayda motorikaga javobgar qismi va nutqqa javobgar qismi juda yaqin joylashgan. Applilatsiyalarni donlar, urug'lardan yasash mayda motorikani juda kuchli rag'batlantiradi.

3. Aynan kichik maktab yoshi davrida bolalarda diqqat rivojlanadi. Bu jarayonsiz ta'lim olishni iloji yo'q. Texnologiya darslaridagi bir-biridan qiziqarli amaliy ishlar bolalarda diqqatni jamlash, uni uzoqroq ushlab turishga yordam beradi. O'quvchilarda diqqat jamlay olmaslik holati bo'lsa topshiriqdan oldin nafas mashqi

(masalan, "Havo shari" mashqi: tik turgan holda beldan yerga egilgan holda, qo'llar osilgan bo'ladi. Qo'llar ikki tarafga ochilish davomida gavda tiklanadi va o'pka lunj to'ldirib nafas olinadi. qo'llar tepada sharsimon birlashadi va har kim o'zini havo shariga havo puflaydi) bajariladi.

4. Zaif eshituvchi bolalar topshiriqni yaxshi eshitolmay qolsa yoki tushunmasa uni bajarishdan bosh tortadi, asabiylashadi. Shuning uchun har bir o'quvchini ismini aytib chaqirib (eshitish apparati sozligi ham tekshiriladi) topshiriq tushunarli bo'lganligi so'raladi. Bajarmay o'tirgan o'quvchiga yordam taklif etish kerak.





5. Texnologiya darslari bolalardagi o'z kuchiga ishonchni, o'z-o'zini baholashni va irodani shakllantiradi. Umumiy iroda yetishmovchiligi bu kichik maktab yoshi davriga xos xususiyat. Kichik sinf o'quvchilarida hali biror maqsad uchun uzoq vaqt kurashish tajribasi bo'lmaydi. Qiyinchilik va mashaqqatlardan darrov ruhi cho'kib, o'z kuchiga ishonchi pasayadi. Buning oddiy sabablaridan biri oiladagi tarbiyaning noto'g'riligi. Chunki ota-onalar ko'pincha nuqsonli farzandini "ayashadi" va natijada bolani o'zlari istamagan holda dangasa va qo'rqqoq qilib qo'yishadi. Pedagog bunday bolalar bilan ishlashda sabrli bo'lib, maqtovlar, qo'llab-quvvatlashlar bilan uni sekin asta tarbiyalab olishga harakat qilishi kerak.

Kichik sinfdagi bolakaylar hissiy ta'sirchanliklari bilan ham ajralib turadi. Ular o'z tuyg'ularini nazorat qilishni va o'zini tutishni hali bilmaydilar. Ularning kayfiyati, quvonchi, qo'rquvi, qayg'usi yorqin namoyon bo'lib turadi va bu dars samaradorligiga ta'sir qiladi. Texnologiya darslarida ularning har bir kichik yutuqlarini ham maqtash kerak. Bu bolaga motivatsiya beradi. Yana sinf xonasida burchak tashkillashtirib unda bolalar ijodlarini portretlarga solib osib qo'yish ularni ilhomlantiradi, g'ururlantiradi. Psixologlar kichik sinf o'quvchilariga yomon baho qo'ymaslikni, "a'lo" bahoni yirik shriftda qo'yishni tavsiya qiladilar.

Adabiyotlar (Referens):

1. L.R. Mo'minova, Sh.M.Amirsaidova, Z.N. Mamarajabova, M.U.Xamidova, D.B. Yakubjanova, Z.M. Djalolova, N.Z.Abidova. Maxsus psixologiya.
2. Toshkent-2013. 116-119-betlar
3. Nurkeldiyeva D.A, Chicherina Ya.Ye. Ilk, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni psixologik-pedagogik, logopedik tekshirish. Toshkent-2007. 65-87-betlar
4. Дефектология : современные проблемы и перспективы развития / Е. Н. Горина, Ю. В. Селиванова, Н. А. Удовиченко [и др]. – Саратов : Изд-во Саратов. ун-та, 2014. – 277-308 с
5. Выготский.Л.С. О связи между трудовой деятельностью и интеллектуальным развитием ребенка // Дефектология. 1976. № 6
6. Богданова Т.Г. "Сурдопсихология: Учеб. пособие. - М.: "Академия", 2002.
7. Боскис Р.М. Глухие и слабослышащие дети. М., 1963. - 152 с.
8. Ананьев Б. Г. О человеке как объекте и субъекте воспитания // Избранные психологические труды: В 2 т. М., 1980. Т. 2 - 185 с.
9. Зыкова Т.С. Обучение глухих школьников планированию предметно - практической деятельности (Методические рекомендации). М., 1978. - 87 с.





10. Гуткина Психологическая готовность к школе. - М., 2000; Она же. Диагностическая программа по определению психологической готовности детей 6 - 7 лет к школе. - М., 1996. С. 17 - 22. (Дополнение руководства - Лубовский Д.В.).

